

UDK-81'367.5

O'ZBEKONA GAP QURILISHIDA FE'LNING TUTGAN O'RNI

Yokubova Shaxnoza Yusufvna

Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi

Buxoro, O'zbekiston

E-mail: Yokubovashaxnoza@gmail.com

ANNOTATSIYA

So'z turkumlari ichida alohida o'ringa ega bo'lgan fe'l so'z turkumini o'rganish o'zbek tilshunosligi paydo bo'lgandan beri olimlarni o'ylantirib kelayotgan muhim masalalardan biri hisoblanadi. Unga sistemaviy yondashuv yangi-yangi ilmiy tadqiqotlarning yaratilishiga turki bo'ldi. O'zbek tilida fe'l so'z turkumi faqat harakat, holatnigina emas, balki situatsiyani (vaziyatni) ham bir butun holda anglatadigan, u shu harakat, holat—situatsiyaning barcha aktantlarini (qatnashuvchilarini) ham ifodalash qobiliyatiga ega bo'lgan so'z turkumidir. U gap markazi bo'lib kelganda, tarkibidagi leksik ma'no ifodalovchi lug'aviy asosining hamda kesimlik ko'rsatkichlarining valentlik nazariyasi asosida kengayishidan kengaygan birikmali sodda yoqiq gaplar hosil bo'ladi. Ushbu maqolada shular haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: fe'l, fe'l valentligi, substansial tahlil, nutq, voqelanish, valentlik, formal-funksional tilshunoslik, lisoniy sintaktik qolip, oraliq qolip, invariant qolip, til birligi, nutq birligi, kesimlik ko'rsatkichi, atov birligi.

THE PLACE OF THE VERB IN UZBEKAN SENTENCE STRUCTURE

ABSTRACT

Studying the verb word group, which has a special place among word groups, is one of the important issues that scientists have been thinking about since the emergence of Uzbek linguistics. A systematic approach to it has led to the creation of new scientific researches. In the Uzbek language, the word group of verbs means not only the action, state, but also the situation (situation) as a whole. When it becomes the center of a sentence, simple compound sentences are formed based on the expansion of the lexical base expressing the lexical meaning and the lexical indicators on the basis of the valence theory. This article is about them.

Keywords: verb, verb valence, substantive analysis, speech, occurrence, valence, formal-functional linguistics, linguistic syntactic pattern, intermediate pattern, invariant pattern, language unit, speech unit, case indicator, noun unit.

KIRISH

Jahon tilshunosligida lison va nutq farqlanishi asosida paydo bo'lgan struktural tilshunoslik rivojlanishi natijasida til birliklariga o'zgacha qarash shakllanib kelmoqda. Mana bir necha o'n yildirki o'zbek tilshunosligida ham tilga, tilshunoslikka milliy qarash asosida til nazariyasida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Til birliklariga substansial yondashuv leksik-semasiologik, morfologik va sintaktik sathlarda yangi tahlillar asosida bir qancha ishlar amalga oshirildi.

So'z turkumlari ichida alohida o'ringa ega bo'lgan fe'l so'z turkumini o'rganish o'zbek tilshunosligi paydo bo'lgandan beri olimlarni o'ylantirib kelayotgan muhim masalalardan biri hisoblanadi. Unga sistemaviy yondashuv yangi-yangi ilmiy tadqiqotlarning yaratilishiga turki bo'ldi.

ASOSIY QISM

Tilning eng muhim asosiy birligi nima? Bu so'zdir. Yirik tilshunos olim R.Rasulov fikricha, so'z til birligi sifatida boshqa til birliklari: fonema, morfema, frazeologik ibora kabilar ichida universal, semantik jihatdan rang-barang, eng murakkab birlikdir. Olim so'zni universal til birligi deyishiga sabab har bir so'z tovush (linvistik ramz sifatida) va ma'noga sememaga ega bo'lishidan, o'z tarkibiga fonema va morfema kabi alohida til birliklarini olishi bilan birgalikda, u gapning funksiyasi bo'lgan fikr ifodalashni ham bajaradi. So'z gap bo'lib kela oladi. So'zga xos bu xususiyat, ayniqsa, fe'llarga tegishli[7]. Qiyoslang: keldim—men keldim, uxlayapti—u uxlayapti, o'qiysan—sen o'qiysan. Til birligi bo'lgan so'zda tilning boshqa birliklarini hatto nutq birligi –gapni ko'rish mumkin[7].

Har bir so'z o'z belgi va xususiyatlarining birligidan iborat, muayyan element, qirra, tomon, imkoniyatlarga ega o'ziga xos sistemachadir[8;16] deb fikr bildirgandi rus tilshunosi V.M. Solnsev.

Demak, so'zni nominativ funksiyani bajarishda tilning haqiqiy, jonli, asosiy birligi sifatida olish va shunday tushunish so'zga substansial yondashuvning natijasidir. Binobarin, so'z muayyan tomon va munosabatlarining dialektik birligiga, o'zida mavjud belgi—xususiyat va jihatlariga—ularni bevosita tashishiga ko'ra til birliklari ichida eng universal va eng asosiy birlik bo'lish qobiliyati bilan ajralib turadi. Shu jihatdan so'zni substansial hodisa sifatida, muayyan xususiyatlarni (masalan, semantik-grammatik xususiyatlarni) o'zida tashuvchi til birligi sifatida tatbiq qilish maqsadga to'la muvofiq keladi.

So'zni substansial tushunishdan kelib chiqadigan yana bir muhim xulosa shuki, so'z til birligi bo'lishi bilan birga nutq birligi hamdir. Ham til birligi, ham nutq birligi bo'la olish imkoni til birliklari ichida faqat so'zga xosligini olimlar ta'kidlashadi. Chunki so'zning nutq birligi ham bo'la olishi aslida uning shunday xususiyatga "tabiiy", "tug'ma" ega bo'lish imkonidan kelib chiqadi. So'zni nutq birligi deganda

soʻzning mohiyatini gapda oʻrganish va aniqlashdan kelib chiqilsa, til birligi deganda, soʻzni gapdan tashqarida oʻrganish koʻzda tutiladi[7;8]. Soʻz ham tilda (til birligi sifatida), ham nutqda (nutq birligi sifatida) oʻrganiladi. Shuningdek, soʻz oʻzining asosiy nominativ funksiyasini nutq jarayonida bajaradi. Shu faoliyatda u semantik konkret, pozitsion mustaqil boʻladi, muayyan sintaktik vazifada reallashadi. Tilshunos V.G.Gak taʼbiriga koʻra, “nutqda alohida soʻzning semantikasi butun jumlaning semantik strukturasi bilan oʻzaro munosabatga kirishadi”[2]. Shunga koʻra til sistemasining asosiy birligi boʻlgan soʻz leksik maʼnosining konkretlashuvi, boshqa leksema sememalari bilan birikuvi, muayyan semantik sintagmani tuzuvi hosil boʻladi.

Valentlik nazariyasining obyektivligi, aktualligi, ilmiy-praktik mohiyati soʻzning leksik-semantik kuchi, mavqeyi bilan belgilanadi. Soʻzning “ruhi”, “joni” boʻlgan semantikasi uning boshqa soʻzlar bilan birikishini taʼminlaydiki, birikma, gap kabi nutq birliklari soʻzlarning nutqda boshqa soʻzlar bilan birika olish semantik imkoniyatining, valentlik munosabatining natijasi sifatida qaralmogʻi lozim. Soʻz semantik valentligining muayyan koʻrinishi feʼl valentligi hisoblanadi. Chunki valentlik nazariyasi dastlab feʼlning gap qurilishida qoʻllanishining mahsuli sifatida feʼlning boshqaruv xususiyatlarini oʻrganish jarayonida shakllanadi[6;72] deb aytgan edi I.Qoʻchqortoyev. Ayni shu oʻrinda S.D.Kasnelsonning quyidagi fikrini keltirish maqsadga muvofiqdir, “mazmun planida feʼl predikat faqat leksik maʼnodangina iborat boʻlmaydi. U muayyan maʼno ifodalagani holda ayni vaqtda oʻzida boʻlajak gapning maketini saqlaydi”[7;17].

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqqan holda, feʼl faqat harakat, holatnigina emas, balki situatsiyani (vaziyatni) ham bir butun holda anglatadi, u shu harakat, holat—situatsiyaning barcha aktantlarini (qatnashuvchilarini) ham ifodalash qobiliyatiga egadir. Feʼlning ana shu qobiliyati uning semantik valentligi sifatida belgilanadi[7;17]. Demak, semantik valentlikka ega feʼl harakat, holat, nutq, koʻrish, eshitish aktlarini ham shu aktlarning zaruriy aktantlari orasidagi munosabatlarni ifodalaydi. Amalga oshishi mumkin boʻlgan aloqalarning miqdoriga koʻra feʼllar turli valentliklarga ega boʻladi. Masalan: koʻrdim (kimni, nimani, qayerda, qachon), uchrashdim (kim bilan, qachon, qayerda, nima sababdan, nima maqsadda). Xullas, feʼl soʻz turkumi valentlik imkoniyatiga ega boʻlib, bu imkoniyatning yuzaga chiqishi, tasdigʻi nutqda sodir boʻladi. Feʼl gapda valentlik tashuvchiligi bilan, boshqa soʻzlarni oʻziga biriktira olish qobiliyatiga ega eng asosiy konstruktiv (quruvchi) birlik ekanligi bilan ajralib turadi.

Til hodisalariga substansial yondashganda lisoniy va nutqiy sintaksis oʻzaro dialektik aloqada turadi. Nutqiy sintaktik hodisalarga nisbatan lisoniy umumiylik sifatida turli xil qoliplar, konstruksiyalar, modellar mavjudligi allaqachon ilmiy jihatdan isbotlab berildi[4]. Nutqiy gap sintaktik qurilma boʻlganligi sababli lisoniy bosqichda uning barqaror invariant qolipi toʻgʻri kelishi kerak. Oʻtgan asrning 40-90-

yillarida tilshunosligimizda sodda gapning qolipi sifatida “ega+kesim” ajratilgan edi va shu asosda bir nechta lingvistik tadqiqotlar yaratilgani ma’lum. Afsuski, sodda gap uchun qabul qilingan bu qolip, o‘zbek tilidagi hodisalarni kuzatish asosida emas, balki Yevropa tilshunosligidan andoza olish asosida yaratilgan edi. Chunki o‘zbekcha gaplarda ega muhim zaruriy bo‘lak emas. O‘zbekcha gaplarda kesim tarkibida kelgan shaxs-son ko‘rsatkichining o‘zigina harakatning bajaruvchisi, uning shaxsi va soni haqida ma’lumot beradi va uni yana alohida gap bo‘lagi bilan doimo qaytadan takrorlab o‘tirishga zaruriyat qoldirmaydi (Uslubiy holatlar bundan mustasno) [5]. Qiyoslang. O‘qidim. O‘quvchisan. Uxlayapti.

Ega o‘zbek tilida gapning umumiy invariant qolipidan eng zaruriy bo‘lak sifatida o‘rin olmaydi. Bu masala milliy tilshunosligimizda formal-funksional tadqiqotlarda atroflicha o‘rganilib o‘z isbotini topdi. Jumladan, o‘zbek tilida gapning eng umumiy qolipi “kesimlik ko‘rsatkichi bilan shakllangan atov birligi”, —(ya’ni [WPm]) ekanligi tilshunos olimi M.Abuzalova tomonidan isbotlab berildi [1]. Bu qolip 2 ta tarkibiy qismdan iborat: 1) atash vazifasini bajaruvchi har qanday birlik—atov birligi [W]; 2) kesimlik kategoriyasi (zamon, shaxs-son, mayl-modallik, tasdiq-inkor) ko‘rsatkichlari [Pm]. Bu ikki unsur, element o‘zbek tilidagi barcha gaplarda mavjud bo‘lib, bu shakl (ya’ni [WPm]) o‘zbek tilida gapni hosil qilishga ixtisoslashgan.

Biz nutqimizda har doim ham O‘qidim, O‘quvchisan. Uxlayapti. tipidagi gaplardan foydalanmaymiz, ya’ni nutq hamisha yuzaga chiqqan harakat, holatning aniq muayyanligini talab qiladi. Ya’ni ushbu harakat, holat qayerda, qanday, qay holatda, kim tomonidan yuzaga chiqqanligi. Masalan:

1. O‘qidim. —Men kecha o‘zim yoqtirgan badiiy asarni berilib o‘qidim.
2. O‘quvchisan. —Sen maktabdagi eng a’lochi o‘quvchisan.
3. Uxlayapti. —Yugurib-yugurib charchagan bolakay miriqib uxlayapti.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, gap markazi hisoblangan kesimning lug‘aviy asos qismi yoki kesimlik ko‘rsatkichlarining kengayishidan sodda yoyiq gaplar hosil bo‘lyapti. O‘zbekcha gaplarda kesim gapning markazi, asosiy “tayanch suyagi” bo‘lib, nutqda uning kengayishidan qolgan gap bo‘laklari, ya’ni ega, hol, to‘ldiruvchi, aniqlovchi hosil bo‘ladi. Bu esa gap lisoniy sintaktik qolipi (LSQ) ning nutqda kengayishi ikki omil asosida sodir bo‘lishining isboti sanaladi: 1) lug‘aviy qism—atov birligining semantik valentligi asosida; 2) kesimlik kategoriyasi ko‘rsatkichlarining valentligi asosida. O‘zbek tilidagi gap qurilishida ikki holatni farqlash lozim: 1) gap kesimining lug‘aviy asos qismining kengayishidan, ya’ni so‘zning ma’noviy valentligi bilan aloqador kengaytiruvchilar (so‘z kengaytiruvchilari) bilan kengayish; 2) gapning, kesimning “joni” hisoblangan kesimlik ko‘rsatkichlarining kengayishidan hosil bo‘lgan kengaytiruvchilar (gap kengaytiruvchilari). Qiyoslang:

Kecha Dilnoza oyisi sovg‘a qilgan kitobni berilib o‘qidi.

Ushbu gapda o'qidi kesimi tarkibidagi [-di] kesimlik ko'rsatkichining shaxs-son va zamon ma'nolarining kengayishidan [kecha] va [Dilnoza] gap kengaytiruvchilari hosil bo'ldi. O'qidi kesimi tarkibidagi lug'aviy asos (o'qi)ning semantik valentligi asosida [berilib], [kitobni], [oyisi sovg'a qilgan] so'z kengaytiruvchilari hosil bo'ldi. Umuman olganda, o'zbekcha gaplarda kesimning o'zi alohida bir gapni hosil qila oladi, kesim qurshovining kengayishi asosida kengaygan birikmali sodda gaplar hosil bo'ladi.

Tilimizda kesimlikni ifodalovchi vositalar juda cheksiz. Ko'rinib turibdiki, kesimlik ko'rsatkichi bilan shakllangan atov birligi [WPm] ramzi bilan berilgan gapning lisoniy qolipi yuqori darajada umumiylikka ega. Bu mohiyat o'zbek nutqidagi istalgan gapda u bir so'zdan iboratmi, 15-20 so'zdan iboratmi, barchasida birdek voqelanadi. Qiyoslang: Charchadim. O'qi. kabi ixcham gaplar ham, "O'zi juda yuvosh va beozor bo'lgan bu bola umrida birinchi marta yuragining o'ziga bo'yinsunmaganini, nogahon uyg'otilgan ko'nglining g'alati hislar bilan entikkanini, ko'kragida og'ir bir to'qmoqning to'xtovsiz bir ko'tarilib, bir tushib turganini va o'ziga yot bo'lgan allaqanday tumanli xayollarning miyasida poyga qo'ya boshlaganini sezdi " (Cho'lpon. Kecha va kunduz.) kabi 30dan ortiq so'zdan iborat kengaygan birikmali sodda gaplar ham yuqoridagi qolipning hosilasidir.

XULOSA

O'zbek tilida fe'l so'z turkumi faqat harakat, holatnigina emas, balki situatsiyani (vaziyatni) ham bir butun holda anglatadigan, u shu harakat, holat—situatsiyaning barcha aktantlarini (qatnashuvchilarini) ham ifodalash qobiliyatiga ega bo'lgan so'z turkumidir. U gap markazi bo'lib kelganda, tarkibidagi leksik ma'no ifodalovchi lug'aviy asosining hamda gapning "joni" bo'lgan kesimlik ko'rsatkichlarining valentlik nazariyasi asosida kengayishidan kengaygan birikmali sodda yoqiq gaplar hosil bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Абузалова М. Ўзбек тилида содда гапнинг энг кичик қурилиш қолипи ва унинг нутқда воқеланиши: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Тошкент, 1994.–19 б.
2. Гак В.Г. Семантическая структура слова как компонент семантической структуры высказывания// Семантическая структура слова. М.,1971. С90.
3. Khojjeva, M. Y., & Yokubova, S. Y. (2021). Language and speech expression of personal descriptions. TJE-Tematics journal of Education ISSN, 2249-9822
4. Неъматов Ҳ., Сайфуллаева Р., Қурбонова М. Ўзбек тили структурал синтаксиси асослари. —Тошкент: Университет, 1999. —56 бет.
5. Қурбонова М., Шокирова Ҳ. Гапнинг тил ва нутқ фарқланишига кўра талқини// Ўзбек тили ва адабиёти. —Тошкент, 2003. 3-сон, 32-35-бетлар.

6. Қўчқортөв И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги. – Тошкент: Фан, 1977. – 168 б.
7. Расулов Р. Ўзбек тилидаги ҳолат феъллари ва уларнинг облигатор валентликлари. – Тошкент: Фан, 1989. – 142 б.
8. Солнцев В.М. Язык как системно-структурное образование. М.1971. С16.
9. В.Е.Kilichev, M.Z.Safarova. Toponyms Formed On The Basis Of Nation Names. International Journals of Sciences and High Technologies. Vol. 25 No. 1 February 2021, pp. 104-107.
10. В.Е.Kilichev, M.Z.Safarova. Bukhara region's typical toponyms transformed by means the names of nations. International Scientific Journal Theoretical & Applied Science, <http://t-science.org/> p-ISSN: 2308-4944 (print) e-ISSN: 2409-0085 (online) 2021.02.05
11. В.Е.Kilichev, M.Z.Safarova. The Concept of Totemism and Ethnonym. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and..., 2022. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=xE0DgREAAAAJ&citation_for_view=xE0DgREAAAAJ:u-x6o8ySG0sC
12. Safarova.M.Z. ALISHER NAVOIY IJODIDA ETNONIMLARNING QO'LLANILISHI. FILOLOGIK TADQIQOTLAR: MUAMMO VA YECHIM" mavzusida xalqaro ilmiy KONFERENSIYA. 2021. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=xE0DgREAAAAJ&citation_for_view=xE0DgREAAAAJ:d1gkVwhDpl0C
13. Yokubova, S. (2021). Tibbiy matnlarda obyektli birikmalarning voqelanishi. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 7(7).
14. Yokubova, S. (2021). Относительно формального грамматического описания объектных соединений. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 7(7).
15. Yokubova, S. (2020). Объектные сочетания. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 1(1).
16. Yusufovna, Y. S. (2022). POETIK NUTQDA MA'NO KO'CHISH YO'LLARI. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 674-677.